

DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH IJTIMOIIY MUAMMO SIFATIDA

Ikromova Sitora Akbarovna

Osiyo xalqaro universiteti assistenti

E-mail: sitorapsixolog@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet muammolari haqidagi ilmiy qarashlar va bu muammoga ilmiy yondashuvlar haqida soʻz boradi. Mavzu yuzasidan dolzarb masalalar aynan maqolada yoritilgan.*

***Kalit soʻzlar:** Destruktiv, anarxist, millatchi, “men” konsepsiyasi.*

Destruktiv axborot avtoritar shaxslar va minoritar ijtimoiy guruhlarining gʻayriinsoniy ifodalangan manfaatlariga asoslangan boʻlib, ushbu manfaatlarni jamiyat uchun qoʻllab boʻlmaydi, chunki alohida guruhni manfaati butun jamiyat aʼzolarining manfaatidan ustun emas. Odatda destruktiv gʻoyalarning keng tarqalishi va ularga muvofiq tashkilot yoki guruhlarining faollashishi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi, ommaviy axborot-kommunikatsiya vositalari sohasidagi ziddiyatlarning avj olishi bilan bogʻliq.

Oʻsmirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari – ijtimoiy psixologik muammo sifatida xorij tadqiqotchilari doirasida qay tariqa va qanday oʻrganilganligini tahlil qilish hamda talqin qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki destruktiv axborotlar nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishiga oid olib borilgan nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy tadqiqotlar koʻlamiga maʼlum tartibda baho bermay turib, oʻsmirlarda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr-mulohaza yuritib boʻlmaydi.

Bugungi kunda globallashuv jarayonida insonlar ongi uchun kurash va axborot xurujlari hamda ochiq va yopiq maqsadlarni koʻzlagan gʻoyaviy, destruktiv axborotlarni inobatga oladigan boʻlsak, mazkur destruktiv tahdidlarga nisbatan oʻsmirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlari qay darajada masʼuliyatli ekanligi koʻp hollarda mafkuraviy immunitet va uning tarkibiy qismlarini bilishimizga bogʻliqdir.

Bundan koʻrinadiki, oʻsmirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etishda yuqorida sanab oʻtilgan psixologik jabhalarga tayanib izohlash muhimdir.

Hozirgi kunda psixologiya fanida shaxsda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirish xususiyatlarini baholashga doir asosiy nazariy yondashuvlar yetarlicha bayon etilmagan boʻlsada, quyidagi xorij olimlarining psixologik ishlarini eʼtiborga olish muhimdir.

Xorij manbalarini tahlil qilganimizda aynan destruktiv axborotlar va mafkuraviy immunitetning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi shaxsning to‘laqonli shakllanishi, sog‘lom xulq-atvor va uni boshqarish mexanizmlari, o‘smir shaxsda “Men” konsepsiyasi, uning shakllanish qonuniyatlari, shaxsning psixologik himoya mexanizmlari, o‘zini o‘zi anglash qonuniyatlari, ijtimoiylashuv jarayoni qadriyatlar tizimi, ma’naviy bilimlarning orttirishi, etnopsixologik va milliy xarakterologik xususiyatlar shakllanish kabi shaxsning har xil g‘oya va mafkuralarning maqsadlarini anglashga yordam beruvchi masalalarda bir qator tadqiqotlar olib borilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Turli davrda yashab, ijod qilgan xorijlik psixolog, faylasuf, tarixchi, mafkuraviy texnologiyalar va geosiyosat mutaxassislari K.Girs[42], F.Kazin[57], L.Shabanov[104], A.Morozov[68], Ye.Karseva[58], Z.Bjezinskiy[27], S.Kara-Murza[61], A.Zinovev[119], G.Grachev[43], S.Zelinskiy[120], A.Karayani, R.Chaldini, R.Xarris, I.Zasurskiy, S.Rastorguev, R.Abdullatipov, K.Kalandarov, pedagog va psixologlar A.Rean, O.Petrich, I.Kolotilova[64], V.Druzin[35] va boshqalar mafkuraviy kurash, yoshlarga xavf solayotgan destruktiv axborotlar, manipulyatsiya jarayonlari, “ommaviy madaniyat”ning globallashuvi, g‘oyaviy kurashning turli jabhalarini tadqiq qildilar va barcha tadqiqotlarning asosida insonda destruktiv axborotlar ta’siriga berilishni ko‘p jihatdan ularning psixologiyasiga borib taqalishini qayd etib o‘tdilar.

Jumladan, Charlz Rubining 2002 yilda yozilgan “Terroristlar ruhiy xastamilar?” nomli kitobida odamlar ommaning ijtimoiy-siyosiy holatini yaxshilash maqsadida emas, psixologik ehtiyojlarini qondirish maqsadida terroristga aylanadilar” degan fikrlari shaxsda destruktiv axborotlar hamda ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishda uning psixologik omillarini tadqiq qilishimizga turtki bo‘ldi.

Yana shunday fikrlar Abraxam Kaplan – terrorizm bo‘yicha xalqaro ekspertning qarashlarida ham mavjuddir. Abraxam Kaplan ijtimoiy sharoitlar – terrorizm asosini, shaxs xususiyatlari esa terrorizm sababini aniqlashda katta yordam bo‘ladi, deb ta’kidlaydi.

Siyosiy psixolog Djerrold Post [36] esa insonlarning destruktiv axborotlar ta’siriga tushushini ularning psixologik omillariga bog‘lab, ikki turga bo‘lib o‘rganadi va ularni yuzaga keltiruvchi psixologik omillarga quyidagicha izoh beradi:

- Anarxist – ideolog;
- Millatchi – separatist;

Anarxist – ideolog. Bolaligida ota-onalari o‘rtasidagi jiddiy janjallar qurboni bo‘lgani bois oilaga, unda birinchi navbatda, otaga qarshi isyon vujudga keladi. Ota-ona mavjud siyosiy tartibga itoat ramzi ekan, o‘z otasiga isyon osongina davlatga qarshi isyonga aylanadi. U o‘z maqsadlariga erishsa ham isyonga sabab topaveradi, zotan isyon ichki nafratni namoyon qilish imkoniyatidir.

Millatchi – separatist. U o‘z davlati hokimiyatiga qarshi emas, uning xohishi tashqi dushmanlarga qarshi qaratilgan. Muammo: o‘zligini boshqalardan farqlashning patologik imkoniyatidan mahrum ekanligidadir. Shu sabab ular jamiyatga qarshi isyon ko‘taradi va bir paytlar uning ota-onasiga yetkazilgan azoblar uchun qasos oladilar.

Aksilterroristik markazning sobiq direktori Pol Pilar fikrida ham buzg‘unchi g‘oya vakillarining ushbu holatlarni sodir qilishda ularning asosi sifatida psixologik omillarga urg‘u beradi. Ya‘ni, Pol Pilarning yondashuviga ko‘ra, terroristik uyushmalar impulsiv emas, rejaga muvofiq faoliyat yuritadi. Maqsadlari kriminal emas, siyosiy: shunchaki pul emas tartibni o‘zgartirish. Maqsadlari harbiylar emas, fuqarolardir. Davlat chegaralari doirasida emas, millatlararo guruhlar doirasida ish yuritadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, destruktiv axborotlarga nichbatan barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq qilish maqsadga muvofiq. Shu bois mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarining tarkibiy qismi sifatida shaxs xususiyatlari, uning irodaviy-emotsional holatlari, ong usti va ong osti jarayonlari, bilish jarayonlari, ijtimoiylashuv jarayonlari, ustanovkalari, motivatsiyalari, ehtiyojlari, maqsadlari, e‘tiqodlari, qadriyatlar tizimi kabilarning o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir .

Jumladan, psixolog olimlardan A.N.Leontev[66] o‘zining “Psixikaning rivojlanish muammolari”, B.G.Ananev[19] “Inson bilishning predmeti sifatida”, L.I.Bojovich “Shaxs va uning bolalar jamoasida shakllanishi” kabi asarlarida[28] inson ongiga o‘zini o‘zi nazorat qilish usullarini singdirish kabi psixologik xususiyatlar tadqiq qilingan. Mazkur olimlarning ishlarida biz tadqiq qilayotgan o‘smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, birinchilardan bo‘lib shaxs o‘zini o‘zi boshqara olishi, nazorat qila olishi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarurligi ta‘riflangan. Ya‘ni o‘zini o‘zi nazorat qilish usullarining shaxs tomonidan to‘laqonli o‘zlashtirilishi shaxsning o‘z faoliyatini o‘zi boshqarishdan murakkab boshqarishga o‘sib o‘tadi. Shunday qilib, shaxslarning o‘zini o‘zi nazorat qilishga o‘rgatilishi natijasida ularning o‘z shaxsiy aqliy faoliyatini boshqarish, bilish tizimini nazorat qilish, o‘z kuchiga ishonch, o‘ziga va o‘zgalarga ob‘ektiv baho bera olish tizimi shakllanadi.

B.G.Ananev, N.V.Kuzmina, N.F.Talizina, V.Ya.Lyaudis, I.S.Kon, V.T.Lisovskiy, A.A.Bodalevlarning asarlarida “shaxsning kamoloti, tushunchalari o‘smirlik yoshi davriga kelib ancha takomillashadi. Bu davrda yoshlarda xulqning eng muhim sifatlari: mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va o‘zlikni anglash takomillashib boradi. Shuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish tobora kuchayadi. Bu davrda shaxsda “Men” real menlikdan “ideal menlikka” (yuksak darajada ma’naviy, axloqiy tushunchalarning anglanishi, barqaror va barkamol sifatlar majmui)ga o‘tiladi”,- deb ta’kidlanadi.

Yuqoridagi mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va o‘zlikni anglash, ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish kabi fazilatlar shaxs mafkuraviy immunitetining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki destruktiv axborot inson ongiga ta’sir qilganda, u o‘zining farosati, yuksak umuminsoniy va insonparvar bilimi, topqirligi, hushyorligi, axloqiy sifatlarga egaligi bilan unga qarshi tura oladi, yoki kurasha oladi.

Adabiyotlar

1. G‘oziev E.G‘. Pedagogika-psixologiya, “Noshir” Toshkent.2014.-B.28-29
2. G‘oyibnazarov Sh. “Ommaviy madaniyat” T.: “O‘zbekiston”, 2012, - 240 b.
3. Himmatov D. “Globallashuv sharoitida milliy mafkurani takomillashtirish muammolari” nomz. ... diss. – T.: 2006, - 103 b.